В статье рассматривается роль общего IgE и цитокинов ИЛ-6 и ИФН- γ в разработке дополнительных критериев ранней диагностики, прогнозирования и лечения заболевания у больных семейной бронхиальной астмой. Исследование проводилось с участием 82 человек, страдающих бронхиальной астмой. В данном случае определяли общий IgE, ИЛ-6 и интерферон- γ в сыворотке крови методом ИФА с использованием тест-системы «Вектор-Бест». Проведен анализ уровней общего IgE, ИЛ-6 и интерферона- γ , определяемых в сыворотке крови лиц из семей с наследственной предрасположенностью к семейной бронхиальной астме, в зависимости от патогенетических типов бронхиальной астмы, стадий заболевания, длительности течения и уровня контроля заболевания. Показано, что стадии, формы, длительность заболевания и уровень контроля заболевания при семейной бронхиальной астме могут быть использованы в качестве дополнительных критериев диагностики, прогнозирования и лечения заболевания.

Ключевые слова: семейная бронхиальная астма, общий IgE, ИЛ-6, интерферон- γ .

Okboev Toshpulat Alikhodjaevich

PhD., Senior Lecturer, Department of Internal Medicine No. 4. Samarkand State Medical University. Samarkand, Uzbekistan

STUDY OF CYTOKINE LEVELS IN FAMILY BRONCHIAL ASTHMA

ANNOTATION

The article considers the importance of total IgE and IL-6, IFN- γ cytokines in the development of additional criteria for early diagnosis, prognosis and management tactics in patients with familial bronchial asthma. The study was conducted on 82 individuals with bronchial asthma. In this study, total IgE, IL-6 and interferon- γ were tested in serum using the IFA method using the Vector-Best test system. The levels of total IgE, IL-6 and interferon- γ detected in the serum of individuals from families with a hereditary predisposition to familial bronchial asthma were analyzed in relation to the pathogenetic types of bronchial asthma, stages of the disease, duration of the disease and the degree of disease control. It is shown that the stages of progression of familial bronchial asthma, types, duration of the disease and the level of disease control, as well as the different manifestations of the content of total IgE, IL-6, interferon- γ , can be used as additional criteria for the diagnosis, prognosis and management tactics of the disease.

Keywords: familial bronchial asthma, total IgE, IL-6, interferon- γ .

Okboev Toshpo'lat Alixo'jaevich

PhD., katta o'kituvchi- Samarqand davlat tibbiyot universiteti. 4-son ichki kasalliklar kafedrası, Samarqand, O'zbekiston

OILAVIY BRONXIAL ASTMA KASALLIGIDA SITOKINLAR DARAJASINI O'RGANISH

ANNOTATSIYA

Maqolada oilaviy bronxial astma bilan xastalanganlarda kasallikni erta tashxislash, bashoratlash va boshqaruv taktikasining qo'shimcha mezonlari ishlab chiqishda umumiy IgE va IL-6, IFN- γ sitokinlari ahamiyati ko'rib chiqilgan. Tadqiqot bronxial astma bilan xastalangan 82 nafar shaxslarda olib borilgan. Bunda «Vektor-Best» test – sistemasidan foydalanib IFA usuli bo'yicha qon zardobida umumiy IgE, IL – 6 va interferon - γ tekshirilgan. Oilaviy bronxial astmaga irsiy moyil bo'lgan oiladagi shaxslar qon zardobida aniqlangan umumiy IgE, IL-6 va interferon- γ miqdorini bronxial astma kasalligining patogenetik turlari, kasallik pog'onalari, kasallikning davomiyligi va kasallik nazorat qilinish darajasi bo'yicha tahlili o'tkazilgan. Bunda oilaviy bronxial astmaning kechish pog'onalari, turlari, kasallik davomiyligi va kasalligi nazorat darajasida umumiy IgE, IL – 6, interferon- γ miqdorini turlicha ko'rinishlari kasallikni tashxislash, bashoratlash va boshqaruv taktikasining qo'shimcha mezonlari sifatida qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: oilaviy bronxial astma, umumiy IgE, IL-6, interferon- γ .

Dolzarbli. Bronxial astma (BA) geterogen patogenezli kasallik hisoblanib, uning asosida immunologik va noimmunologik mexanizmlar yotadi. Bu umumiy patogenetik zveno birlashganda bronxlarga zararli ta'sir ko'rsatadigan allergiya mediatorlari ajraladi Turli kasalliklarning patogenezida sitokinlarning rolini o'rganish zamonaviy tibbiyotning eng yangi yo'nalishlaridan biridir. Qon va boshqa tana suyuqliklarida sitokinlarning konsentratsiyasini aniqlash prognostik ahamiyatga ega. Kasallikning og'irligini baholash va uning kechishini bashorat qilish uchun kasallikning dinamikasida yallig'lanishni kuchaytiruvchi va yallig'lanishga qarshi sitokinlarning konsentratsiyasi aniqlanadi. So'nggi yillarda sitokin ishlab chiqarish darajasini aniqlash usullarini ishlab chiqish tufayli ma'lum sitokinlarning insonning salomatlik va kasallikdagi rolini tushinishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Bronxial astma (BA) bilan og'rigan bemorlarda qon zardobida sitokinlarni o'rganishga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan. Qon zardobida bir qator sitokinlarning darajasining ortishi tasdiqlangan. Biroq, ba'zi mualliflar qon zardobidagi sitokinlar darajasi va kasallikning kuchayishi o'rtasidagi bog'liqlik haqida ishonchli dalillarga ega emaslar. Ayniqsa oilaviy bronxial astmani tashxislash, kasallik kechishini bashoratlash va nazorat darjasini aniqlash mezonlari sifatida sitokinlarning ahamiyati haqida yetarlicha ma'lumotlar kamchilikni tashkil qiladi.

Shu sababli o'zbek populyatsiyasida oilaviy bronxial astmaga irsiy moyil bo'lgan oiladagi bemorlarni tashxislash, bashoratlash va boshqaruv taktikasini o'rganishda immunologik tahlillarning rolini muhim hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Oilaviy bronxial astma kasalligida umumiy IgE va IL-6, IFN- γ sitokinlari ahamiyati o'rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Bronxial astma bilan og'rigan 82 nafar bemorlarning qon zardobidagi umumiy IgE va IL-6, interferon- γ darajasi o'rganildi.

Tadqiqotga kiritilganlarni yoshi 10 -67 yosh [o'rtacha 37,04 yosh] bo'lib, ulardan 39 nafari (47,56%) erkaklar va 43 nafari (52,44%) ayollardir.


Oilada bronxial astma xastaligini aniqlash maqsadida oiladagi barcha shaxslar keng qamrovli klinik, funktsional va laboratoriya tekshiruvlaridan o'tkazildi. Bemorlarni tekshirish JSST xalqaro tasnifi (XKT-10 qayta ko'ruvi asosida) va BA ni davolash va oldini olish bo'yicha global strategiya (GINA, 2024) diagnostik mezonlariga muvofiq amalga oshirildi.

Oiladagi shaxslarda immunologik tahlillar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va immunodiagnostika instituti laboratoriyasida o'tkazildi. Bunda qon zardobidagi INF-g va IL-6 darajasini aniqlash IFA usulida amalga oshirildi.

Nazorat guruxi uchun yoshi 17 – 62 yil (o'rtacha 28,64) bulgan 21 nafar (11 nafar erkak va 10 nafar ayol) amaliy sog'lom shaxslar tekshirildi.

Olingan ma'lumotlarning statistik ishlovi natijalari Rentum – IV kompyuterida «Microsoft Excel» dasturi yordamida bajarildi.

Natija: Dastlab oiladagi shaxslarda tadqiqot uchun tanlangan shaxslardan bronxial astma bilan xastaligi aniqlangan bemorlarda immunolgik tekshirish o'tkazildi. Olingan natijalardan tahlil qilib aytish mumkinki, oilaviy BA bilan kasallangan bemorlarda yallig'lanishni yuzaga keltiruvchi va yallig'lanishga qarshi sitokinlar parametrlari qon zardobida umumiy IgE, IL-6 va interferon- γ mahsulotli immunokomponent hujayraning ko'payganligini ko'rsatadi. Oilaviy BA bilan kasallangan bemorlarning perefirik qon zardobida umumiy IgE, IL-6 va interferon- γ miqdorlari (mos ravishda 295,94 \pm 21,91 ME/ml; 13,83 \pm 0,98 pg/ml; 7,07 \pm 0,40 pg/ml gacha) nazorat guruhidagi ko'rsatkichdan (mos ravishda 67,2 \pm 16,44 ME/ml; 8,6 \pm 2,4; 4,4 \pm 0,8 pg/ml) ishonchli darajada oshganligi qayd qilindi (mos ravishda p<0.001, p<0,01, p<0,05) (1-rasm).




1-rasm. Oilada bronxial astma bilan xastalanganlar qon zardobida umumiy IgE, IL-6 va interferon- γ ko'rsatkichlari

Bemorlarda o'tkazilgan immunolgik tekshirish natijalari asosida oilaviy BA ning patogenetik turlari bo'yicha bemorlar perefirik qon zardobida aniqlangan umumiy IgE, IL-6 va interferon- γ ishlab chiqarish darajasi o'rganildi. Bunda oilaviy BA ni allergik turi bilan xastalangan bemorlarning perefirik qon zardobidagi umumiy IgE, IL-6 va IFN- γ miqdori (mos ravishda 564,2 \pm 72,04 ME/ml; 18,3 \pm 1,3 pg/ml; 5,1 \pm 0,12 pg/ml) nazorat guruhidagi shaxslar ko'rsatkichidan (mos ravishda 67,2 \pm 16,44 ME/ml; 8,6 \pm 2,4 pg/ml; 4,4 \pm 0,8pg/ml) statistik jihatdan ishonchli oshganligi qayd qilindi (p<0.001, p<0.05).

Oilaviy BA ni noallergik turi bilan xastalangan bemorlarning perefirik qon zardobidagi umumiy IgE, IL-6 va IFN- γ miqdori (mos

ravishda 156,4 \pm 21,5 ME/ml; 11,3 \pm 1,06 pg/ml; 8,9 \pm 1,08 pg/ml) nazorat guruhidagi shaxslar ko'rsatkichidan (mos ravishda 67,2 \pm 16,44 ME/ml; 8,6 \pm 2,4 pg/ml; 4,4 \pm 0,8pg/ml) ishonchli darajada oshganligi qayd etildi (p<0.01, p<0.05).

Oilaviy BA ni aralash turi bilan xastalangan bemorlarning perefirik qon zardobidagi umumiy IgE, IL-6 va IFN- γ miqdori (mos ravishda 312,9 \pm 44,23 ME/ml; 14,8 \pm 1,23; 7,87 \pm 1,28 pg/ml) nazorat guruhidagi shaxslar ko'rsatkichidan (mos ravishda 67,2 \pm 16,44 ME/ml; 8,6 \pm 2,4; 4,4 \pm 0,8 pg/ml) ishonchli darajada oshganligi aniqlandi (p<0.001, p<0.05) [2-rasm].



Izoh: natijalar ishonchliligi nazorat guruhdagilarga nisbatan olingan (p<0,001, p<0,01, p<0,05)


2-rasm. Bronxial astma kasalligini klinik-patogenitik turlarida umumiy IgE, IL-6 va interferon- γ ko'rsatkichlari

Oilaviy BA bilan kasallangan bemorlarda IgE, IL-6 va IFN- γ mahsulotlari darajasini o'rganishdan ma'lum bo'ldiki, kasallikning barcha patogenetik turlaridan qat'iy nazar periferik qondagi yallig'lanishni yuzaga keltiruvchi IgE va sitokinlarining miqdori yuqori darajada ekanligini ko'rsatdi. Pereferik qon zardobida IgE, IL-6 va IFN- γ miqdori allergik (mos ravishda 564,2 \pm 72,04 ME/ml; 18,3 \pm 1,3 pg/ml; 5,1 \pm 0,12 pg/ml), noallergik (mos ravishda 156,4 \pm 21,5 ME/ml; 11,3 \pm 1,06 pg/ml; 8,9 \pm 1,08 pg/ml) va aralash (mos ravishda 312,9 \pm 44,23 ME/ml; 14,8 \pm 1,23; 7,87 \pm 1,28 pg/ml) patogenetik turlarida statistik jihatidan ($p < 0,001$, $p < 0,01$, $p < 0,05$) ishonchli farq kuzatilganligi qayd qilindi. Bu esa oilaviy BA patogenezida immunologik mexanizmlarga oid keltirilgan ma'lumotlar tashxis qo'yishga yangicha differentsiallashgan yondoshuvni va nafas yo'llari yallig'lanish kasalliklarining rivojlanishini to'xtatuvchi patogenetik davolashni tavsiya qilish uchun asos bo'la oladi. Pereferik qon zardobidagi aniqlangan umumiy IgE ning eng yuqori ko'rsatkichi kasallikni allergik turida (564,2 \pm 72,04 ME/ml) qayd qilinishi erta diagnostik immunologik marker ekanligini tasdiqlaydi. Oilaviy BA allergik turida kasallikning boshqa turlariga nisbatan solishtirganda

bemorlar pereferik qon zardobidagi IL-6 miqdorini oshishi, interferon- γ miqdori kamayishi kasallikni patogenetik turlarini farqlashda qiyosiy tashxisot markeri bo'lishligi ko'rsatildi.

Oiladagi BA bilan xastalangan bemorlarda aniqlangan immunologik ko'rsatkichlarini kasallikning kechish pog'onalari bo'yicha baholandi. Oilaviy BA ni og'irligi bo'yicha kasallikni barcha pog'onasi bilan xastalanganlarda pereferik qon zardobida umumiy IgE, IL-6 va IFN- γ miqdorlari sezilarli darajada oshganligi qayd qilindi. Kasallikni I – pog'onasida (mos ravishda 311,1 \pm 32,4 ME/ml; 18,2 \pm 2,9 pg/ml; 7,2 \pm 1,1 pg/ml) nazorat guruhida (mos ravishda 67,2 \pm 16.44 ME/ml; 8,6 \pm 2,4; 4,4 \pm 0,8 pg/ml), II – pog'onasida (mos ravishda 262,6 \pm 21,3 ME/ml; 17,7 \pm 2,1 pg/ml; 7,8 \pm 0,9 pg/ml) nazorat guruhida (mos ravishda 67,2 \pm 16.44 ME/ml; 8,6 \pm 2,4; 4,4 \pm 0,8 pg/ml), III – pog'onasida (mos ravishda 171,6 \pm 18,6 ME/ml; 14,5 \pm 2,7 pg/ml; 8,9 \pm 1,4 pg/ml) nazorat guruhida (mos ravishda 67,2 \pm 16.44 ME/ml; 8,6 \pm 2,4; 4,4 \pm 0,8 pg/ml), IV – pog'onasida (mos ravishda 132,3 \pm 12,7 ME/ml; 12,3 \pm 1,9 pg/ml; 9,6 \pm 1,2 pg/ml) nazorat guruhida (mos ravishda 67,2 \pm 16.44 ME/ml; 8,6 \pm 2,4; 4,4 \pm 0,8 pg/ml) ko'rsatkichlar qayd qilinganligi aniqlandi ($p < 0,001$, $p < 0,01$, $p < 0,02$, $p < 0,05$) [3 – rasm].

Izoh: farqlar nazorat guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan ahamiyatli ($< 0,05$, $p < 0,02$, $p < 0,01$, $p < 0,001$).



3-rasm. Oilada bronxial astmani kechish og'irligi ko'ra umumiy IgE, IL-6 va interferon- γ ko'rsatkichlari


Shunday qilib, oilaviy BA bilan xastalanganlarda kasallik kechish pog'onalarining ortib borishi bilan bemor qon zardobida umumiy IgE va IL-6 miqdori kamayib borishi, ammo IFN- γ miqdorining esa oshib borishi kuzatildi. Allergik yallig'lanishni mezon hisoblangan umumiy IgE, yallig'lanishni kuchaytiruvchi va yallig'lanishga qarshi sitokinlar miqdoridagi bu kabi ko'rsatkichlarni oilaviy BA da kasallik kechish og'irligini darajasi markerlari sifatida baholash mumkin. Oilaviy BA da immun tizimdagi yetishmovchiliklar natijasida kasallikning rivojlanishiga va zo'riqishiga sabab bo'ladi deb izohlash mumkin. Bu esa kasallikka o'z vaqtida tashxis qo'yish va davolash taktikasini belgilashda mezon bo'lishini ko'rsatadi.

Biz olib borgan tadqiqotda oilada aniqlangan kasallikni davomiyligi oshib borgan sari kasallik og'irlashib, kechish pog'onasining ortib borishi kuzatildi. Shu sababli oilaviy BA bilan xastalanganlarda aniqlangan immunologik ko'rsatkichlarini kasallikning davomiyligi bo'yicha tahlili o'tkazildi. Kasallikni davomiyligi oshib borgan sari bemorlar pereferik qon zardobida umumiy IgE, IL-6 miqdori sezilarli darajada kamayganligi va IFN- γ miqdori sezilarli oshganligi qayd qilindi.

Oilaviy BA bilan xastalanganlarda pereferik qon zardobida umumiy IgE miqdori kasallik davomiyligi 5 yilgacha - 304,2 \pm 24,9 ME/ml, 5-10 yilgacha - 271,6 \pm 26,7 ME/ml, 10-15 yilgacha - 189,4 \pm 25,8ME/ml, 15 yildan ortiq davrda - 172,7 \pm 22,4 ME/ml ni tashkil qilib, nazorat guruhi - 67,2 \pm 16.44 ME/ml bilan taqqoslaganda ishonchli oshganligi kuzatildi ($p < 0,001$).

Oilaviy BA bilan xastalanganlarda pereferik qon zardobida IL-6 miqdori kasallik davomiyligi 5 yilgacha - 16,2 \pm 1,9 pg/ml, 5-10 yilgacha - 15,4 \pm 2,1 pg/ml, 10-15 yilgacha - 14,6 \pm 1,3 pg/ml, 15 yildan ortiq davrda - 13,1 \pm 2,9 pg/ml qayd qilinib, nazorat guruhi - 8,6 \pm 2,4 pg/ml bilan solishtirilganda statistik hihatdan ishonchli farq kuzatildi ($p < 0,02$, $p < 0,05$).

Oilaviy BA bilan xastalanganlarda pereferik qon zardobida IFN- γ miqdori kasallik davomiyligi 5 yilgacha - 6,0 \pm 0,9 pg/ml, 5-10 yilgacha - 6,4 \pm 1,2 pg/ml, 10-15 yilgacha - 7,2 \pm 0,7 pg/ml qiymatlarda ifodalaniib, nazorat guruhiga - 4,4 \pm 0,8 pg/ml garaganda sezilarli farq bo'ldi. Faqat 15 yildan ortiq davrda - 8,4 \pm 1,4 pg/ml esa ishonchli farq qayd qilinganligi kuzatildi ($p < 0,05$) [4 – rasm].




Izoh: farqlar nazorat guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan ahamiyatli ($p < 0,05, p < 0,02, p < 0,001$).

4-rasm. Oilaviy bronxial astmani kasallik davomiyligiga ko'ra umumiy IgE, IL-6 va interferon-γ ko'rsatkichlari

Olingan natijalardan ma'lum bo'ldiki, oilaviy BA patogenezida immunologik mexanizmlarni o'rganish ya'ni umumiy IgE, IL-6 va IFN-γ larning o'rni shu patologiyada nafas yo'llarining yallig'lanish jarayonini rivojlanishi va davomli bo'lishida katta ahamiyatga ega.

Oilaviy BA bilan xastalanganlarda aniqlangan immunologik ko'rsatkichlar kasallikni nazorat qilinish darajasi bo'yicha baholandi. Pereferik qon zardobida umumiy IgE miqdori oilaviy BA nazoratga erishmaganlarda ($456,7 \pm 32,8$ ME/ml), nazoratga erishgan ($243,4 \pm 29,3$ ME/ml) bemorlar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada oshganligi qayd qilindi ($p < 0,001$). Nazorat guruhiga nisbatan umumiy IgE miqdori ($67,2 \pm 16,44$ ME/ml) bu ikki guruhda ham ishonchli farq borligi aniqlandi ($p < 0,001$).

Pereferik qon zardobida IL-6 miqdori oilaviy BA nazoratga erishmaganlarda ($15,7 \pm 2,3$ pg/ml), nazoratga erishgan ($9,6 \pm 1,9$ pg/ml) bemorlar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada oshganligi qayd qilindi ($p < 0,05$). Nazorat guruhida IL-6 miqdori ($8,6 \pm 2,4$ pg/ml) nazoratga erishmagan lar guruhiga nisbatan ishonchli oshgan ekanligi aniqlandi ($p < 0,05$). Pereferik qon zardobida IFN-γ miqdori esa oilaviy BA nazoratga erishmaganlarda ($3,5 \pm 0,8$ pg/ml), nazoratga erishgan ($4,8 \pm 0,9$ pg/ml) bemorlar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada kamayganligi qayd qilindi. Nazorat guruhida IFN-γ miqdori - $4,4 \pm 0,8$ pg/ml ni tashkil etdi [5-rasm].



Izoh: natijalar ishonchligi nazorat va tadqiqot guruhdagilarga nisbatan olingan ($p < 0,001, p < 0,05$)

5-rasm. Oilada bronxial astmani nazorat qilinishi bo'yicha umumiy IgE, IL-6 va interferon-γ ko'rsatkichlari

Umumiy IgE va IL-6 darajasini o'rganishdan ma'lum bo'ldiki, kasallikning nazoratga erishgan va nazoratga erishmagan davridan qat'iy nazar periferik qondagi ularning miqdori yuqori darajada ekanligini ko'rsatdi ($p < 0,001$). IFN-γ miqdori esa kasallik nazoratga erishmaganlarda sezilarli darajada kamayganligi qayd qilindi. Shunday qilib, kasallikni nazorat qilinishida sitokin mahsullarining bu ko'rsatkichlari tashxisga yangicha yondoshuvga asos bo'lishi bilan izohlandi.


Adabiyotlarda ta'kidlashidan ma'lumki, organizm immunologik holatini o'zgarishi BA patogenezini asosiy xalqalaridan biri

hisoblanadi. Yallig'lanishning immunologik markeri hisoblangan IgE va sitokinlar ifodalanish darajasi, kasallikni rivojlanish bosqichi va kechish og'irligiga bog'liq. Tadqiqot o'tkazilgan oiladagi shaxslarni immunolgik holatini o'rganish, tashxis, davolash va profilaktik o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tekshirish uchun ajratilgan oiladagi shaxslar quyidagi guruhga (proband, oilaviy BA bilan xastalangan qarindoshlari va sog'lomlarda) ajratilib, umumiy IgE, IL-6 va IFN-γ miqdori tahlil qilindi. Bunda pereferik qon zardobidagi umumiy IgE miqdori oiladagi probandlarda - $304,2 \pm 24,9$ ME/ml, BA bilan xastalangan qarindoshlarida - $271,6 \pm 26,7$ ME/ml, BA

aniqlanmagan qarindoshlarida - 189,4±25,8 ME/ml ni tashkil qildi. Oiladagi tekshirilgan bu guruhlar immun ko'rsatkichlar qiymati nazorat guruhi - 67,2±16,44 ME/ml bilan tagqoslaganda statistik jihatdan ishonchli tarzda yuqoriligi qayd qilindi (p<0,001). Pereferik qon zardobidagi IL-6 miqdori probandlarda - 16,2±1,9 pg/ml, BA bilan xastalangan qarindoshlarida - 15,4±2,1 pg/ml, BA aniqlanmagan qarindoshlarida - 14,6±1,7 pg/ml ni tashkil qildi. Nazorat guruhi ko'rsatkichi - 8,6±2,4 pg/ml bilan taqqoslaganda barcha yuqoridagi guruhlarda ishonchli ko'p ishlab chiqarilganligi bilan ifodalandi (p<0,02, p<0,05). Pereferik qon zardobidagi IFN - γ miqdoriprobandlarda - 7,1±1,2 pg/ml, BA bilan xastalangan qarindoshlarida - 5,1±0,9 pg/ml, BA aniqlanmagan qarindoshlarida - 4,8±0,8 pg/ml ni tashkil qildi. Nazorat guruhida bu ko'rsatkich - 4,4±0,8 pg/ml qayd qilindi [6-rasm].

Shunday qilib, qon zardobidagi umumiy IgE miqdori oiladagi tekshirilgan barcha guruhlarda, jumladan probandlarda, BA bilan xastalangan qarindoshlarida va BA aniqlanmagan qarindoshlarida ishonchli yuqoriligi bilan ifodalandi (p<0,001). Bu manbalarda keltirilgan oilaviy BA da allergik yallig'lanish yuzaga kelishida IgE-vositali mexanizm rivojlanishi asosiy rol o'ynashini tasdiqlab, BA aniqlanmagan qarindoshlarida esa allergik fon borligidan darak beradi. Bu kasallikni kechishini bashoratlashda muhim ahamiyat egadir. Oiladagi xastalanganlarda qon zardobida aniqlangan IL-6 va IFN - γ ko'rsatkichlari ham kasallikning davrlariga mosligini va yallig'lanish biomarkerlari ekanligini ko'rsatib, kasallik tashxislashda ahamiyatini ko'rsatadi.

Izoh: natijalar ishonchliligi nazorat guruhdagilarga nisbatan olingan(p<0,001, p<0,02, p<0,05)



6-rasm. Oilada guruhga ajratilgan shaxslarda umumiy IgE, IL-6 va interferon-γ ko'rsatkichlari

Oilada tadqiqot o'tkazilgan guruhlarda kasallikni patogenetik turlari bo'yicha IgE, IL-6 va IFN-γ ko'rsatkichlarining korrelyatsion bog'liqligi o'rganildi.

Oilaviy BA bilan xastalanganlarda kasallikni patogenetik turlari va IgE-IL-6 konsentratsiya darajasi o'rtasida bemorlarning barcha guruhlarida statistik jihatdan to'g'ri munosabatlar mavjud, umumiy guruhida r=0,64; p<0,01, allergik turida r=0,74; p<0,01 musbat yaqqol korrelyatsion bog'liq borligi, noallergik turida r=0,11; p<0,05, aralash

turida r=0,25; p<0,05 musbat kuchsiz ifodalangan korrelyatsion bog'liqlik borligi aniqlandi.

Oilaviy BA bilan xastalanganlarda kasallikni patogenetik turlari va IL-6-IFN-γ konsentratsiya darajasi o'rtasida bemorlarning barcha guruhlarida statistik jihatdan teskari munosabatlar mavjud, umumiy guruhida r=-0,33; p<0,02, allergik turida r=-0,21; p<0,05, noallergik turida r=-0,41; p<0,02, manfiy kuchsiz ifodalangan korrelyatsion bog'liqlik borligi aniqlandi, aralash turida korrelyatsion bog'liqlik kuzatilmadi.

Jadval

Tadqiqot o'tkazilgan guruhlardagi IgE, IL-6 va IFN-γ ko'rsatkichlarini korrelyatsion bog'liqligi

	Umumiy guruh*	Allergik BA**	Noallergik BA***	Aralash BA****	p*	p**	p***	p****
IgE-IL-6	0,64	0,74	0,11	0,25	<0,01	<0,01	<0,05	<0,05
IL-6-IFNγ	-0,33	-0,21	-0,41	0,04	<0,02	<0,05	<0,02	>0,05
IgE- IFNγ	-0,34	-0,30	0,04	0,22	<0,02	<0,02	>0,05	<0,05

Oilaviy BA bilan xastalanganlarda kasallikni patogenetik turlari va IgE - IFN-γ konsentratsiya darajasi o'rtasida bemorlarning barcha guruhlarida statistik jihatdan teskari munosabatlar mavjud, umumiy guruhida r=-0,34; p<0,02, allergik turida r=-0,30; p<0,02, manfiy kuchsiz ifodalangan korrelyatsion bog'liqlik borligi, aralash turida r=0,22; p<0,05 musbat kuchsiz ifodalangan korrelyatsion bog'liqlik borligi qayd qilindi va noallergik turida korrelyatsion bog'liqlik kuzatilmadi.

O'tkazilgan korrelyatsion tahlillar natijasi BA ning har xil patogenetik shakllarida sitokinlarning ishlab chiqilishi o'ziga xos bo'lishini ko'rsatadi. Jadvalda ko'rsatilishicha, interleykinlar patologiyaning turlarida, kasallikni barcha turlari bo'lgan bemorlarda IgE-IL-6 ko'proq, IL-6-IFN-γ va IgE-IFN-γ biroq kamroq ishtirok etishini ko'rsatadi.

Xulosa: Shunday qilib, oilaviy bronxial astmani og'ir turida qon zardobida umumiy IgE, IL-6, IFN-γ darajasi nomutanosiblik bilan kechadi, uning darajasi kasallikning klinik va patogenetik variantiga bog'liq. BADA sitokin spektri parametrlarini o'rganish natijalari ushbu patologiyaning shakllanish mexanizmlarining geterogenligini tasdiqlaydi. Klinik va patogenetik variantga qarab sitokin profilini o'rganish va bronxial astma bilan og'irgan bemorlarga differentsial yondashuv kasallikni nazorat qilish uchun zarur bo'lgan diagnostika, bronxial astma kechishini bashoratlash imkoniyatlarini oshiradi va, shubhasiz, davolashni optimallashtirishga yordam beradi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bronxial astma bilan og'irgan bemorlarda kasallikning og'ir bosqichida kasallikning turli shakllarida yallig'lanishga qarshi va yallig'lanishga qarshi sitokinlarni ishlab chiqarishda har xil ko'rinishdagi o'zgarishlar kuzatildi.

1. Аралов Н. Р. и др. Роль полиморфного локуса гена eNOS3 и их взаимосвязи противо-и провоспалительных цитокинов при семейной бронхиальной астме //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 9-1 (50). – С. 34-39.
2. Аралов Н. и др. Изучение спектра противо-и провоспалительных цитокинов в сыворотке крови при семейной бронхиальной астме //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2017. – №. 3 (96). – С. 24-26.
3. Аралов Н.Р., Окбоев Т.А., Давидьян А.А., Холлиев Р.Х., Клеблеева Г.Д., Зиядуллаев Ш.Х. Продукция иммунорегуляторных цитокинов IL-6, IFN- γ и IgE при различных патогенетических типах бронхиальной астмы. ВЕСТНИК ассоциации пульмонологов центральной азии. Ташкент 2013 г, выпуск 16(№1-4). Стр 53-56
4. Дрыгина Л.Б., Алхутова Н.А. Продукция иммуноглобулинов класса Е у пациентов с атопической аллергией. // Медицинская Иммунология. -2002. - Т. 4, № 2, - С. 175.
5. Дугарова И.Д., Анаев Э.Х., Чучалин А.Г. О роли цитокинов при бронхиальной астме //Пульмонология.-2009.-№4. –С.96-102.
6. Okboev T.A., Dusanov A. D. The significance of indicators of the function of external respiration in the early detection of bronchial asthma in the family. //Journal of environmental health research. Volume 1 Issue 2 2022. page no.:57-63.
7. Okbaev T. A. Safarova M.P. Prevalence of eNOS 3 Gene Polymorphism in Family Members of Patients with Familial Bronchial Asthma in the Uzbek Population. American Journal of Medicine and Medical Sciences. 213(5): May 17, 2023. page no 626-632.
8. Окбоев Т. А., Клеблеева Г. Д., Аралов Н. Р. Роль полиморфного локуса гена eNOS3 в формировании бронхиальной астмы //Академический журнал Западной Сибири. – 2013. – Т. 9. – №. 1. – С. 54-55.
9. Окбоев Т. А., Клеблеева Г. Д. Изучение степени контроля семейной бронхиальной астмы по иммунным показателям //ХИСТ. Всеукраинский журнал студентов и молодых учёных. Черновци. – 2016. – №. 18. – С. 470.
10. Рябова Л.В., Зурочка А.В. Различия каскада цитокинов у больных бронхиальной астмой в зависимости от стадии течения заболевания // Медицинская иммунология.-2007.-Т.9-№4-5.-С.493-498.
11. Смирнова С.В., Зенкина Л.В., Кадричева С.Г. Роль некоторых цитокинов в патогенезе бронхиальной астмы // Пульмонология: 13 Национальный конгресс по болезням органов дыхания: Сб. резюме. СПб.,2003.-С.138.
12. Фрейдин М. Б., Кулманакова И. М., Огородова Л. М., Пузырев В. П., Салюкова О. А. Семейные корреляции и наследуемость уровня интерлейкина-4 (ИЛ-4) / 10 Национальный конгресс по болезням органов дыхания. 1-4 ноября 2000, С.Петербург. Сб. резюме // Пульмонология. – 2000. – Прил. – С. 128.
13. Bacharier L.B.,Geha R.S. Molecular mechanisms of IgE regulation // J.Allerg and Clin.Immunol.-2000.-Vol.105.-P.547-558.
14. Chung K.F.,Barnes P.J.Cytokines in asthma//Thorax.-1999.Vol.54.P.825-857.
15. Холжигитова М. Б. и др. Характеристика Клинико-Функциональных Показателей У Больных Covid-19 На Фоне Хронической Обструктивной Болезни Легких //Journal of Science in Medicine and Life. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 106-111.
16. Kholjigitova M. B., Ubaydullaeva N. N. CHANGES IN FUNCTIONAL PARAMETERS AND EXERCISE ENDURANCE IN PATIENTS WITH CHRONIC OBSTRUCTIVE PULMONARY DISEASE //Oriental Journal of Medicine and Pharmacology. – 2022. – Т. 2. – №. 05. – С. 32-35.
17. Kholjigitova M. B., Ubaidullaeva N. N. GENERAL CHARACTERISTICS OF PATIENTS WITH COPD DEPENDING ON THE PRESENCE OF METABOLIC SYNDROME IN THEM //Oriental Journal of Medicine and Pharmacology. – 2022. – Т. 2. – №. 06. – С. 21-29